

BIR DONA KO‘SAKDAGI PAXTA VAZNIGA KO‘CHAT QALINLIGI, YAGANALASH VA CHILPISH MUDDATLARINING TA’SIRI

Bekmetova Shoxida Qodirberdiyevna,

Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti
mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ravnaq-1 hamda O‘zPITI-103 g‘o‘za navlarida, ko‘chat qalinligi va yaganalash o‘tkazish muddatlariga bog‘liq ravishda chilpishning bir dona ko‘sakdagi paxta vazniga ta’siri bayon etilgan. Yaganalash agrotadbirini 1-2 chinbarg davrida o‘tkazib, ko‘chat qalinligini gektariga 80-90 ming tup qoldirilganda kimyoviy usulda chilpish maqbul ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Ravnaq-1 va O‘zPITI-103 g‘o‘za navlari, yaganalash, ko‘chat qalinligi, chilpish muddati, kimyoviy chilpish, bir dona ko‘sak vazni.

Аннотация. В настоящей статье представлены сведения о влиянии чеканки на массу одной коробочки сортов хлопчатника Равнак-1 и УзПИТИ-103, в зависимости от густоты стояния и сроков проведения прореживания. Выявлено, что химическую чеканку следует проводить на участках где прореживания проводилось при 1-2 настоящих листьях и густоты стояния растений 80-90 тыс шт. на гектар.

Ключевые слова: сорта хлопчатника Равнак-1 и УзПИТИ-103, прореживание, густота стояния, химическая чеканка, хлопка-сырца одной коробочки

Abstract. This article describes the effect of plant topping timing on the cotton weight per boll in cotton varieties Ravnaq-1 and UzPITI-103, depending on plant density and the timing of thinning operations. The study found that chemical plant topping is optimal when thinning is carried out at the stage of 1–2 true leaves, maintaining a plant density of 80–90 thousand plants per hectare.

Keywords: Ravnaq-1 and UzPITI-103 cotton varieties, thinning, plant density, plant topping timing, chemical plant topping, single boll weight.


Kirish. Bugungi kunda respublikamiz paxtachiligida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda, ya’ni muayyan tuproq-iqlim sharoitlari uchun mos g‘o‘za navlarini tanlash va parvarishlashning maqbul agrotexnologiyalarini ishlab chiqish; g‘o‘zani mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish; maqbul ko‘chat qalinliklarini belgilash; yaganalash muddatlarini to‘g‘ri tashkillashtirish hamda chilpishni turlicha usul va muddatlarda olib borish orqali paxtadan yuqori hosil etishtirishga katta e’tibor qaratilgan.

Hammamizga ma’lumki, g‘o‘za parvarishidagi chigit ekish, o‘g‘itlash, qator oralariga ishlov berish, sug‘orish, zararli hasharotlar, kasalliklar va begona o‘tlarga qarshi kurashish qanchalik muhim bo‘lsa, yaganalash, ko‘chat qalinligi hamda chilpish agrotadbirlari ham shunday katta ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, birinchidan ko‘chat qalinligi g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanish sharoitiga, binobarin hosildorlikga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ko‘chat siyrak bo‘lsa, ayrim g‘o‘za tuplari baquvvat bo‘lib rivojlanadi va ularning har birida ko‘plab hosil to‘planadi, lekin gektaridan olinadigan umumiy hosil kam bo‘ladi. Aksincha, ko‘chat qalin bo‘lsa, g‘o‘zaning o‘sib rivojlanishi susayadi va bu hosildorlikka biroz salbiy ta’sir etadi, lekin gektaridan olinadigan hosil miqdori oshadi [4]. Ikkinchidan yaganalash — o‘simlikning jadal rivojlanishi va mo‘l hosil to‘plashini ta’minlaydigan, ko‘chat qalinligini ta’minlab beradigan agrotexnik tadbirlardan biri bo‘lib, bu jarayonlarning barchasi bir-birini to‘ldiradi. Vegetatsiya davrining boshida o‘simliklarning o‘sib, rivojlanishiga qulay sharoit yaratish va sifatli hosil olish maqsadlarida o‘tkaziladi. Yaganalashni 1-2 chinbarg paydo bo‘lganda o‘tkazish maqbul muddat bo‘lib, ushbu muhim tadbirni

3-5 kun kechiktirib o‘tkazish hisobiga paxta hosili 2-3 sentnerga kamayadi. Yaganalash sifatli o‘tkazilganda ko‘chat qalinligi yuqori bo‘ladi va g‘o‘zaning suv, oziqadan foydalanish ko‘rsatkichi kamayib, paxtadan 15-20% kam hosil olinadi [5]. Uchinchidan, chilpish jarayoni esa g‘o‘zaning maqbul o‘sib rivojlanishini ta’minlaydi hamda hosil elementlarining shakllanishi va paydo bo‘lishini kuchaytiradigan agrotadbir. Shu bilan birgalikda shona, gul, tugunchalarning noqulay sharoitlar ta’sirida to‘kilishini kamaytiradi hamda ko‘saklarning soni va vaznining ortishini, erta pishib yetilishini ta’minlab, yuqori sifatli tola va sifatli chigit yetishtirishga olib keladi [1].

Materiallar va usullar. Ilmiy izlanishlarda dala tajribalari, fenologik kuzatuvlar, laboratoriya tahlillari “Методика полевых опытов с хлопчатником” va “Дала tajribalarini o‘tkazish uslublari” qo‘llanmalari asosida o‘tkazilgan. Hosildorlik bo‘yicha olingan ma’lumotlarni B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” qo‘llanmasi asosida Microsoft Excel kompyuter dasturi yordamida statistik tahlil qilingan. Tajriba tizimi 32 ta variantdan iborat bo‘lib, bunda ikki xil ko‘chat qalinligi qoldirildi (80-90 va 110-120 ming tup/ga) va ikki xil muddatda yaganalash (1-2 va 3-4 chinbarg) ishlari o‘tkazildi. Har bir variant 3 ta qaytariqda joylashtirildi. Har bir delyanka 4 ta qatordan iborat bo‘lib, qator oralig‘i 60 sm ni tashkil etadi. Tajriba variantlarning maydoni 36 m² ni tashkil etdi.

Natijalar va munozara. Paxta terimidan oldin ko‘chat qalinliklariga mos ravishda chilpish o‘tkazilgan barcha variantlarning I va III qaytariqlaridan umumiy terim hisobida 50 dona ochilgan ko‘sakdan paxta terib olindi va o‘rtachasi hisob-kitob qilindi. Tadqiqot davomida olingan natijalarni 1-rasmda keltirib o‘tamiz.



1-rasm. Turli ko'chat qalinligi, yaganalash va chilpish muddatlarining bir dona ko'sakdagi paxta vazniga ta'siri (2021-2023 yillar), g.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Ravnaq-1 g'o'za navida chilpish agrotadbiri O'zPITI-103 navi nisbatan bir dona ko'sakdagi paxta vazniga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Xususan, o'rtacha uch yillik ma'lumotlariga qarasa, 80-90 ming tup/ga ko'chat qalinlikda 1-2 chinbargda yaganalangan fonning variantlari ichida kimyoviy usulda va 13-14 hosil shoxida qo'lda chilpish o'tkazilgan variantlarning bir dona ko'sakdagi paxta vazni jadvalga mos ravishda 6,4-6,2 gr ni tashkil etgan bo'lsa, huddi shu ko'chat qalinlikda 3-4 chinbargda yaganalangan fonning ichida ham kimyoviy usulda va 13-14 hosil shoxida qo'lda chilpish o'tkazilgan variantlarning bir dona ko'sakdagi paxta vazni mos ravishda 5,8-5,9 gr ni tashkil etgan. Nazoratga nisbatan bu variantlarning ko'sak vazni 0,8-0,6-0,4-0,5 gr ga farq qilganligi qayd etildi.

110-120 ming tup/ga ko'chat qalinlikda 1-2 chinbargda yaganalangan fonning variantlari ichida kimyoviy usulda va 11-12 hosil shoxida qo'lda chilpish o'tkazilgan variantlarning bir dona ko'sakdagi paxta vazni 5,6-5,6 g ni tashkil etgan.

Huddi shu ko'chat qalinlikda 3-4 chinbargda yaganalangan fonning variantlari ichida ham kimyoviy usulda va 13-14 hosil shoxida qo'lda chilpish o'tkazilgan variantlarning bir dona ko'sakdagi paxta vazni 5,2-5,2 g ni tashkil etgan. Bu variantlarning nazoratga nisbatan farqi 0,6-0,6-0,4-0,4 gr ga teng bo'lganligi qayd etildi.

O'zPITI-103 g'o'za navida esa Ravnaq-1 g'o'za navidan bir dona ko'sakdagi paxta vazniga ko'ra birmuncha past bo'lganligi jadvaldan ko'rinib turibdi. O'zPITI-103 g'o'za navining 80-90 ming tup/ga ko'chat qalinlikda 1-2 chinbargda yaganalangan fonning variantlari ichida kimyoviy usulda va 11-12 hosil shoxida qo'lda chilpish o'tkazilgan variantlarda bir dona ko'sakdagi paxta vazni mos ravishda 5,3-5,2 g ni tashkil etgan bo'lsa, huddi shu ko'chat qalinlikda 3-4 chinbargda yaganalangan fonning variantlari ichida

ham kimyoviy usulda va 13-14 hosil shoxida qo'lda chilpish o'tkazilgan variantlarning bir dona ko'sakdagi paxta vazni 5,1-5,1 g ni tashkil etgan. Bu variantlarning nazorat variantiga nisbatan ko'sak vazni 0,5-0,4-0,4-0,4 gr ga ortganligi qayd etildi.

110-120 ming tup/ga ko'chat qalinlikda 1-2 va 3-4 chinbargda yagana qilingan har ikkala fonda ham bir dona ko'sakdagi paxta vazni 12-13 hosil shoxida kimyoviy chilpish o'tkazilgan variantlarda yuqori bo'lib, 4,8-4,6 gr ni tashkil etgan va nazoratga nisbatan ko'sak vazni 0,4-0,3 gr ga ortganligi qayd etildi.

Chilpish o'tkazilmagan variantlarda bir dona ko'sak vazni eng kam massaga egaligi kuzatildi. Xususan Ravnaq-1 g'o'za navining chilpilmagan variantlarida bir dona ko'sak vazni mos ravishda 5,6-5,4-5,0-4,8 gr gacha bo'ldi. O'zPITI-103 g'o'za navining chilpilmagan variantlarida esa 4,8-4,7-4,4-4,3 gr ga teng bo'lgan. Bunga sabab, ushbu variantlarda g'o'zalar g'ovlab ketib, o'simlik tuproqdan olgan ozuqalar asosan uning generativ organlariga emas, balki, vegetativ organlariga sarflanishidir. Shuningdek, o'simlikda gormonal muvozanatning buzilishi, ozuqa moddalar taqsimotining bir xil bo'lmasligi, tashqi muhit stresslarining ta'siri, fotosintez samaradorligining past bo'lishi va turli xildagi kasalliklar hamda zarurkunandalarning ko'p bo'lishi hisobiga ham chilpilmagan variantlarda ko'sak vazni kam massaga ega bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Ravnaq-1 g'o'za navida maqbul ko'chat qalinligi 80-90 ming tup/ga, yaganalash 1-2 chinbargda o'tkazilib, chilpish kimyoviy usulda va 13-14 hosil shoxida qo'lda o'tkazilganda bir dona ko'sakdagi paxta vazni 6,4-6,2 g ni tashkil etib, nazoratga nisbatan 0,8-0,6 g yuqori bo'lgan. O'zPITI-103 g'o'za navida esa bir ko'sak vazni 5,3-5,2 g yoki nazoratga nisbatan 0,5-0,4 g ga og'irroq bo'lganligi qayd etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulimov Sh., Chilpish paxta hosili va tola sifatini oshiradi. //Tuproq unumdorligini oshirish, g'o'za va g'o'za majmuidagi ekinlarni parvarishlashda manba tejovchi agrotekhnologiyalarni amaliyotga joriy etishning ahamiyati-mavzusidagi halqaro ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalari to'plami.-Toshkent 2012 yil, 105-bet.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта—М.Агропромиздат, 1985.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI, T, 2007
4. Teshae F, Baxramov A, Allanazarov S, Abduraxmanov U. Turli ko'chat qalinligiga bog'liq holda chilpishning g'o'za hosildorligiga ta'siri.-O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi-jurnali, 2020 yil, 2-son, 43-bet.
5. Teshae F, Niyazaliev B, Abdulimov Sh, Xasanova F. Bugungi kunda g'o'za nihollarini parvarishlashda nimalarga ahamiyat berish kerak? - O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi-jurnali, 2020 yil, 5-son, 4-bet.